

Date: 17<sup>th</sup> November-2024

**MA'MURIY JAZOLARGA OID JARIMA SOLISH VA MA'MURIY QAMOQQA OLISH TO'G'RISIDAGI QARORLARNI IJRO ETISH FAOLIYATI**

**Mamajonov Amirxon Akmaljon o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 320-guruh kursanti

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqola mavzusining dolzarbligi shundaki, profilaktika inspektorlarining ma'muriy jazolarga oid jarima solish va ma'muriy qamoqqa olish to'g'risidagi qarorlarni ijro etish faoliyati tushunchasi, vazifalari, maqsadi va asosiy yo'nalishlari mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari usul va shakllari, yuzasidan fikr va mulohazalar yoritilgan.

**Annotatsiya:** Актуальность темы данной научной статьи заключается в том, что понятие, задачи, цели и основные направления деятельности инспекторов-профилактиков при исполнении постановлений об административных взысканиях и административном задержании, сущность и особенности, методы и формы, мысли и мнения. выделены.

**Kalit so'zlar:** Konstitutsiya profilaktika inspektorlari ma'muriy jazolarga oid qarorlar jarima ma'muriy qamoqqa olish, ma'muriy bayonoma.

Har qanday davlatning mustahkamligi, uning adolatli va qat'iyatli siyosati, ijtimoiy adolatni, haqiqatni, fuqarolar haq-huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar asosida quriladi. Ayni qonun doirasidagi erkinlik, qonun doirasidagi erkin faoliyat ishlab chiqarish madaniyatini ham, turmush turzi ma'naviy meyorlarini ham davlat boshqaruvi tamoyillarini ham qadriyatga aylantiradi. 2017 -2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasini amalga oshirish doirasida sud-huquq tizimi bilan bog'liq bo'lgan bir qator qonunchilik hujjatlarini qabul qilindi.

Fuqarolarning huquq va erkinliklari institutining ishonchli kafolat etuvchi munosabatlardan yana biri bu mediatsiya yarashtirish institutini takomillashtirishdir. Jismoniy va yuridik shaxslarga o'zaro nizolarni suddan tashqarida, muqobil hal etish imkonining berilishi, avvalambor, fuqarolarga nizolarni qisqa muddatlarda yechilishini, shuningdek, ortiqcha mablag'larning sarflanishiga chek qo'yilishini, turli ovoragarchiliklarni oldini olinishi kabi imkoniyatlarni beradi. Bu vaziyatdan kutiladigan natija esatarafilar orasidagi o'zaro hurmat va ishbilarmonlik munosabatlarini saqlanib qolinishi bo'lib hisoblanadi.

So'nggi yillarda jarimalarni qo'llash, ularni undirishda insonparvarlik va odillik tamoyillariga rioya etgan holda bir qancha qulayliklar yaratilmoqda.

Jarima huquqbuzar tomonidan unga jarima solish to'g'risidagi qaror topshirilgan kundan boshlab o'ttiz kundan kechiktirmay, bunday qaror xususida shikoyat berilgan yoki protest bildirilgan taqdirda shikoyat yoki protest qanoatlantirilmaganligi to'g'risida xabar berilgan kundan boshlab o'n besh kundan kechiktirmay to'lanishi lozim.



Date: 17<sup>th</sup> November-2024

Yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun solingan jarimani huquqbuzar jarima solish to'g'risidagi qaror chiqarilgan kundan e'tiboran oltmish kundan kechiktirmay, bunday qaror xususida shikoyat berilgan yoki protest bildirilgan hollarda esa, shikoyat yoki protest qanoatlantirilmay qoldirilganligi to'g'risida xabar berilgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay to'lashi kerak.

Jumladan, amaliyotdagi yo'l harakati qoidalariga ko'ra, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning tegishli moddalarida yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun solingan jarimani huquqbuzar jarima solish to'g'risidagi qaror chiqarilgan kundan e'tiboran 60 kundan kechiktirmay to'lashi belgilangan. Bu boradagi ishlarni yanada yengillshtirish maqsadida agar huquqbuzar unga jarima solish to'g'risidagi qaror topshirilgan kundan boshlab 15 kun ichida jarima miqdorining 70 foizini ixtiyoriy to'lagan taqdirda, u jarimaning qolgan qismini to'lashdan ozod qilinishi belgilangan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholiga ma'muriy jarimalarni to'lashda qo'shimcha qulayliklar yaratish hamda sohadakorrupsionomillarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 23-mart kuni qabul qilingan qarori bilan bu boradagi ishlar yana-da takomillashtirildi. Agar huquqbuzar unga jarima solish to'g'risidagi qaror topshirilgan kundan boshlab 15 kun ichida jarima miqdorining 50 foizini, 30 kun ichida esa 70 foizini ixtiyoriy ravishda to'lagan taqdirda, u jarimaning qolgan qismini to'lashdan ozod qilinishi belgilandi. Mazkur tartib endilikda sud qarorlariga asosan qo'llaniladigan jarimalarga nisbatan ham tatbiq etiladi. Bu qulayliklarni qonun hujjatlarida belgilash va tezroq amaliyotga joriy qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasiga bir haftamuddatda qonun loyihasini ishlab chiqish va Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritish vazifasi yuklatildi. Bundan tashqari, fuqaro va tadbirkorlarni qiynayotgan muammolarni hal etish maqsadida Majburiy ijro byurosi tomonidan qo'llaniladigan ma'muriy jarimaning miqdori ijro hujjatida undirilishi belgilangan summadan yuqoribo'lishi mumkin emasligi belgilandi. Endilikda Majburiy ijro byurosi nomidan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga hamda ma'muriy jazo qo'llashga faqat O'zbekistonning Bosh davlat ijrochisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining bosh davlat ijrochilari, ularning o'rinbosarlari, shuningdek, Majburiy ijro byurosining tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari haqliligi qat'iy belgilandi. 2023-yil 1-sentyabrdan boshlab sudlanganlik muddatining o'tib ketganligi yoki sudlanganlikning olib tashlanishi haqidagi ma'lumotlar Ichki ishlar vazirligining "Tezkor ma'lumotlar" yagona axborot tizimida avtomatik ravishda onlayn shakllantiriladi

### **Jarima solish to'g'risidagi qarorni ijro etishning soddalashtirilgan tartibi**

Huquqbuzar unga jarima solish to'g'risidagi qaror topshirilgan kundan boshlab o'n besh kun ichida jarima miqdorining ellik foizini yoki o'ttiz kun ichida jarima miqdorining yetmish foizini ixtiyoriy ravishda to'lagan taqdirda, u jarimaning qolgan qismini to'lashdan ozod qilinadi, bundan ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan



Date: 17<sup>th</sup> November-2024

hollar mustasno. Jarima solish to'g'risidagi qarorni ijro etishning soddalashtirilgan tartibi quyidagi hollarda qo'llanilmaydi:

MJTKning Kodeksning 131, 132, 136 va 140-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar sodir etilganda;

jarima solish to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat qilinganda yoki protest bildirilganda;

xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilganda.

#### **Jarima solish to'g'risidagi qarorni majburiy ijro etish**

Huquqbuzar jarimani ushbu Kodeksning 332-moddasida belgilangan muddat ichida to'lamagan taqdirda, jarima solish to'g'risidagi qaror sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risidagi qonunchilikda belgilab qo'yilgan qoidalarga muvofiq jarimani uning ish haqi yoki boshqa maoshidan, nafaqasidan yoki stipendiyasidan majburiy tartibda undirib olish uchun yuboriladi.

Basharti jarima solingan shaxs ishlamayotgan bo'lsa yoxud jarimani huquqbuzarning ish haqi yoki boshqa daromadidan, pensiyasi yoki stipendiyasidan boshqa sabablarga ko'ra undirib olishning iloji bo'lmasa, uni undirib olish davlat ijrochisi tomonidan jarima solish to'g'risida tegishli organ (mansabdor shaxs) chiqargan qaror asosida huquqbuzarning mulkidan, shuningdek umumiy mulkdagi uning hissasidan undirib olish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Jarima O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ijro hujjatlari bo'yicha undirib olinishi mumkin bo'lmagan mol-mulkdan undirib olinishi mumkin emas.

#### **Joyning o'zida undirib olinadigan jarima solish to'g'risidagi qarorni ijro etish**

Ushbu Kodeksning 283-moddasiga muvofiq jarima ma'muriy huquqbuzarlik sodir qilingan joyning o'zida undirib olingan taqdirda huquqbuzarga qat'iy moliyaviy hisobot hujjati hisoblangan belgilangan nusxadagi kvitansiya beriladi.

Jarima ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o'zida to'lanmasa, ishni ko'rib chiqish va qarorni ijro etish ushbu Kodeksning 332 va 333-moddalarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

**Jarima solish to'g'risidagi qarorni ijro etish ishlarini tugallash** Jarima solish to'g'risidagi qarorga muvofiq jarima to'la-to'kis undirib olingach, uning ijro etilganligi haqida belgi qo'yilib, shu qarorni chiqargan organga (mansabdor shaxsga) yoki sudga qaytariladi.

Majburiy ijroga qaratilgan jarima solish to'g'risidagi qaror ijro etilganidan so'ng davlat ijrochisi ijro ishini yuritishni tamomlash to'g'risida qaror chiqaradi va uning bir nusxasini uni chiqargan organga (mansabdor shaxsga) yoki sudga yuboradi.

#### **Ma'muriy qamoqqa olish to'g'risida ham bir qator islohotlar olib borildi.**

Jumladan 2017-yil 9-yanvarda "Ma'muriy qamoqni o'tash tartibi to'g'risida" gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonunning maqsadi, ma'muriy qamoqni o'tash tartibi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Ma'muriy qamoq Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 29-moddasiga muvofiq 3 sutkadan 15 sutkagacha



Date: 17<sup>th</sup> November-2024



bo‘lganmuddatga, favqulodda holat rejimi sharoitlarida esa 30 sutkagacha muddatga qo‘llanishi nazarda tutilgan. Ma‘muriy qamoqqa olish ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 21 ta moddasida ko‘zda tutilgan. Biroq, shu paytga qadar qonunda ma‘muriy qamoqko‘rinishidagi jazoni o‘taydigan joylar va ularning huquqiy mavqei belgilanmagan edi. Qonun qabul qilingach, ma‘muriy qamoqni o‘tash tartibi bilan bog‘liq barcha munosabatlar huquqiy jihatdan tartibga solindi. “2022 —2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonbilan tasdiqlangan taraqqiyot strategiyasida adolat va qonun ustuvorligini ta‘minlashbo‘yicha belgilangan vazifalar quyidagilardir:ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga jinoyat ishlari bilan bir qatorda fuqarolik va ma‘muriy ishlar bo‘yicha ham davlat hisobidan bepul yuridik yordam ko‘rsatish tartibi joriy etilishi;qarori, harakati (harakatsizligi) noqonuniy emasligini ma‘muriy sudda isbotlash majburiyatini, uni qabul qilgan mansabdor shaxsning o‘ziga yuklash tartibiga amal qilinishi qat’iy ta‘minlanishi;harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslarni hisobga olish bo‘yicha yagona onlayn elektron reyestr yuritilishi yo‘lga qo‘yilishi belgilangan.Shuningdek, mazkur Farmon bilan jazoni o‘tab bo‘lgan fuqarolarning kelgusida jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga amaliy ko‘maklashish uchun “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”ni berish tizimi joriy qilinmoqda.Ushbu tizim doirasida jazoni o‘tab bo‘lgan va o‘zining tadbirkorlik, me‘morchilik, hunarmandchilik kabi yo‘nalishlarda aniq loyihalarini taqdim etib, mustaqil faoliyatini boshlamoqchi bo‘lgan fuqarolarga bir martalik moddiy yordam berish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi.2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 18-maqsadida quyidagilar:Sud va boshqa organlar hujjatlarining o‘z vaqtida va to‘liq ijrosini ta‘minlash;Sud va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishning samarali mexanizmlarini joriy etish;Sud va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishning muqobil, shu jumladan suddan tashqari usullaridan foydalanish ko‘lamini kengaytirish;Majburiy ijro organlari faoliyatiga xalqaro standartlarni bosqichma-bosqich joriy etish va ayrim funksiyalarni (sud hujjatlaridan tashqari) xususiy sektorga o‘tkazish, davlat ijrochilari ish yuklamasini kamaytirish belgilanmoqda.

Ma‘muriy qamoqqa olish to‘g‘risidagi qaror chiqarilgandan keyin darhol ijro etiladi.Ma‘muriy qamoqqa olingan shaxslar ichki ishlar organlari belgilab qo‘ygan joylarda qamoqda saqlanadilar. Ma‘muriy qamoqqa olish to‘g‘risidagi qarorni ijro etish chog‘ida qamoqqa olinganlar shaxsiy ko‘rikdan o‘tkaziladilar.Ma‘muriy yo‘l bilan ushlab turish muddati ma‘muriy qamoq muddatiga qo‘shib hisoblanadi.Ma‘muriy qamoqni o‘tash O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan qoidalar asosida amalga oshiriladi.Ma‘muriy qamoqqa olingan shaxslar jismoniy ishlarda foydalaniladi.Ma‘muriy qamoqqa olingan shaxslar mehnatidan foydalanishni tashkil etish tuman (shahar) hokimliklariga yuklatiladi.Ma‘muriy qamoqqa olingan shaxslarga qamoqda bo‘lgan vaqtlari uchun doimiy ish joylaridan ish haqi to‘lanmaydi.